



PEDAGOG 2018


№ 4

MINBARI

THE TRIBUNE OF A TEACHER
ТРИБУНА ПЕДАГОГА

2015-yildan
chiqa boshlagan

ILMIY-PEDAGOGIK, METODIK, MA'NAVIY-MA'RIFIY JURNAL





PEDAGOG

MINBARI

THE TRIBUNE OF A TEACHER
ТРИБУНА ПЕДАГОГА

USHBU SONDA:

BOSH MUHARRIR:
Abduhamid MUXTOROV

Mas'ul kotib:
Olim USMONOV

Musahhih:
Muxlisa DO'STMUHAMEDOVA
Sahifalovchi:
Dilshod AKRAMOV

TAHRIR HAY'ATI:
Abdurahim NOSIROV
Muzaffar HOSHIMOV
Maqsudjon YO'LDOSHEV
Murodilla XOLMUHAMEDOV
Shavkat SHARIPOV
Malohat A'ZAMOVA
Inomjon MAJIDOV
Uzoqboy BEGIMQULOV

MUASSIS:

"Maktub print"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Matbuot va axborot agentligida 0855
raqam bilan 30.07.2015-yilda
ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (0 371) 244-75-88,

e-mail: pedagog_minbari@umail.uz,
4403716@mail.ru

Bosmaxonaga 31.05.2018-yilda topshirildi.

Ofset usulida chop etildi.

Qog'oz bichimi 60x84^{1/8},

Shartli bosma tabog'i 2.

«Times» garniturasini 11,12 kegl.

«ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Uchtepa t. TAKD 11/10 uy.

Buyurtma № _____ Adadi 3050 nusxa.

Bahosi shartnoma asosida.

Dolzarb mavzu

Ilhom CHORIYEV

Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida elektron mediata'lim muhitini takomillashtirish 2

Muallim minbari

Maqsud MAHMUDOV

Bolalar sportini rivojlantirishning tashkiliy, ilmiy va uslubiy asoslari 5

Xorijiy tajriba

Shorasul SHOMANSUROV

Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari 7

Dars ishlanma

Q. XUDOYBERDIYEV

Word matn muharririda hujjatlarning asosiy parametrlari 11

K. MO'MINOVA

Musiqada dinamik belgilar 13

V biblioteky

Ludwig Van BEETHOVEN. Fur Elise 15

Духовное наследие

Барно ФАРМАНОВА, Майя ЭМ

Совет, благоразумие, обдуманность 19

Методика. Опыт

Людмила КОНСТАНТИНОВА

Действие над именованными числами 21

Культура. Музыка

Ирина ГАЛУЩЕНКО

Музыка в эстетическом воспитании молодежи 24

Мысли вслух

Шоира НАМАЗОВА

Я – дочь прекрасного Востока 27

Buyuklar hayotidan

Vazira IBROHIMOVA

Bolalikning bulutli osmonlarida 29

BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY, ILMIY VA USLUBIY ASOSLARI

Hozirgi jarayonda bolalar sportini rivojlantirish munosabati bilan umumta'lim maktablarida sport turlari bo'yicha maxsus sport sinflari tashkil qilinib, bolalar-o'smirlar sport maktablarining faoliyatini yanada yaxshilash masalasi ko'rib chiqilmoqda. Shahar, tuman va viloyat markazlarida hokimliklar huzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armalari tomonidan maxsus bitimlar asosida bolalar sportini yangi, yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha imkoniyatlar yaratib berilayotganligi quvonarli holdir.

Jumladan, maktab yoshidagi bolalar o'rtasida sportni keng targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ular bilan olib boriladigan sport mashg'uloti va musobaqalar jarayonida quyidagi asosiy vazifalarni hal etish maqsad qilib olingan:


- bolalar salomatligini mustahkamlash;
- maktab o'quvchilarini har tomonlama garmonik rivojlantirish, ularning jismoniy mahoratini oshirish;
- bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash va harakat ko'nikma-malakalarini rivojlantirish;
- kundalik mehnat faoliyatini yaxshilash;
- bolalarda milliy istiqlol g'oyalarini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tamoyillar asosida, jamoatchilik ruhida tarbiyalash;
- umumta'lim maktab jamoasi uchun zaxiradagi sportchilarni tayyorlash.

Bu maqsadlarni amalga oshirishda umumta'lim maktablarining faoliyati turli sinflarda, darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'quv-

sport mashg'ulotlarini maqsadli, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishga qaratilishi lozim.

Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilib kelinayotgan «Umid nihollari» musobaqalari tarkibiga kiruvchi sport turlari bo'yicha turli bosqich musobaqalarida har bir maktabdan 40-50 foiz o'quvchilar qatnashib, o'zlarining sport mahoratlarini oshirib kelmoqdalar.

Bolalarning sport tayyorgarligini, jismoniy rivojlanganligini aniqlashning nazariy asos va tamoyillari ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida bosh omil bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti viloyatlarda joylashgan OTMlardagi jismoniy madaniyat



fakultetlari, Olimpiya akademiyasi tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishi natijasida umumta'lim maktablari «Jismoniy madaniyat va sport nazariyasi, uslubiyati» fani yuzaga keldi. Bu, o'z navbatida, bolalar sportini rivojlantirish borasida ham yangi usullar, sport mashq tizimlari, sportchilarning umumiy, har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi va nazorat qilib boruvchi pedagogik texnologiyalar yuzaga kelishi uchun zamin hozirlamoqda. Bolalar sport tarbiyasi tushunchasi yangi tushuncha sifatida o'rtaga tashlanmoqda. Bunda, so'zsiz, sport tarbiyasiga e'tibor qaratilishini ko'ramiz. Bu sport tarbiyasi pedagogik jarayonlarning tarkibiy qismidir. Chunki har bir sportning o'ziga xos tarbiya yo'nalishi mavjud. Bu esa tarbiya sohalarining maqsad va vazifalari shakliga qarab tashkil etiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, bolalar sportini rivojlantirish bilan bog'liq mavjud muammolar umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari jismoniy madaniyat darsini o'tish jarayonida hal etilib kelinmoqda. Ilmiy anjumanlarda ko'tarilayotgan muammolar, birinchi navbatda, yurtimizdagi OTMLar jismoniy madaniyat fakultetlari talabalari

tomonidan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari pedagogik amaliyotni o'tash jarayonida hal qilinishi, bartaraf etilishi ta'kidlanmoqda.

O'zbekiston olimlari tomonidan bolalar sportini tashkillashtirish, ommaviy sportni yanada yuqori cho'qqilarga ko'tarish maqsadida sportni hozirgi davr andozalariga moslab, jismoniy madaniyat uslubiyatiga xos yangiliklarni kiritmoqdalar. Ilmiy izlanishlarda har bir viloyatda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini o'rganish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, o'sib kelayotgan yosh bolalarning sport tayyorgarligini yanada chuqurroq o'rganish va takomillashtirish yo'llari bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borishga to'g'ri keladi. Chunki dastlabki muloqotdan boshlab yosh sportchilar to'g'ri tarbiyalab borilsa, ularning asta-sekin sport mahoratlari va natijalari o'sib borishi, iqtidorli, qobiliyatli sportchi bo'lib yetishishlariga erishiladi. Masalaga shunday yondashgandagina yuksak mahoratli sportchilarni tayyorlashning tashkiliy usullari, shakllari davr o'zgarishi bilan takomillashib borishiga imkoniyat tug'iladi.

Maqsud MAHMUDOV,

BuxDU "Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport" kafedrasida o'qituvchisi

